



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



SHE'RIYATDA TABIAT VA INSON RUHIYATI UYG'UNLIGI

Aliyeva Guljahon Abdullajon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

guljahon2805@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272118>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotidagi zamonaviy ayol shoirlar ijodida inson ruhiy kechinmalari va tabiat obrazlari o'rtasidagi uyg'unlik tahlil etiladi. O'ktamoy, Xosiyat Rustamova, Guljamon Asqarova kabi shoiralarning she'riy merosi asosida tabiat tasvirining ruhiy holatni ifodalashdagi roli ochib beriladi. Maqola poetik matnlarni zamonaviy adabiyotshunoslik va psixologik-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: She'riyat, tabiat, ruhiyat, uyg'unlik, ayol shoirlar, timsollar.

Аннотация: В статье рассматривается художественное отображение гармонии природы и человеческой психики в поэзии современных узбекских поэтов. Анализируются стихи Октамой, Хосият Рустамовой, Гульджемон Аскаровой, Халимы Худойбердиевой и Зулфиш, подчеркивается значение природы как отражения внутреннего мира человека.

Ключевые слова: поэзия, природные образы, психика, поэтика, символ, лирический герой, гармония.

Abstract: This article explores the artistic representation of the harmony between nature and the human psyche in Uzbek poetry, with a focus on the works of poets such as O'ktamoy, Khosiyat Rustamova, Guljamol Asqarova, Halima Khudoyberdiyeva, and Zulfiya. It examines how inner emotional states are revealed through natural imagery and how psychological experiences are expressed using poetic devices.

Keywords: Poetry, nature imagery, psyche, poetics, symbol, lyrical hero, harmony.

She'riyat har bir millatning ruhiy hayoti, tarixiy xotirasi va estetik didining ifodasidir. Ayniqsa, tabiat obrazlari orqali inson ruhiy olamini ifodalash, uning tuyg'ularini, kechinmalarini va orzularini tasvirlash she'riyatning eng muhim xususiyatlaridan biridir. O'zbek she'riyatida bu an'ana qadimdan mavjud bo'lib, bugungi kunda ham o'zining badiiy-estetik salmog'ini yo'qotmagan. Ayniqsa, ayol shoirlar ijodida tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik, uyg'unlik juda nozik, ichki sezimlar orqali yoritiladi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda ijod qilgan mashhur shoirlar – Zulfiya, O'ktamoy, Xosiyat Rustamova, Guljamon Asqarova va Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida tabiat va inson ruhiyati uyg'unligi qanday badiiy ifoda topgani tahlil qilinadi. Bu shoiralarning lirik qahramonlari ko'pincha o'z ichki kechinmalarini tabiat obrazlari orqali ifoda etadi. Tabiat esa nafaqat fon yoki manzara sifatida, balki ruhiy holatning bevosita timsoli sifatida xizmat qiladi. Tabiat obrazlari she'riyatda ko'p hollarda ichki kechinmalarni ifodalash, ruhiy o'zgarishlarni aks ettirish vositasi



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



sifatida ishlatiladi. Bu holatda tabiat nafaqat dekorativ fon, balki aktiv semantik birlikka aylanadi.

Ruhiy holat ko‘pincha quyosh, yomg‘ir, tun, bahor kabi tabiiy hodisalar orqali ramziy shaklda ifodalanadi. Masalan, yomg‘ir – ko‘z yoshi, bahor – umid, tun esa iztirob obraziga aylanishi mumkin. Bu holatda semiotik tahlil muhim rol o‘ynaydi. Lotmanning san‘at semiotikasi [1:12] ana shunday timsollar tizimini tushunishga yordam beradi.

O‘ktamoy she‘rlarida tabiat obrazlari ayol ruhiyatidagi murakkabliklarni ifodalashda markaziy rol o‘ynaydi:

*Chumoliday g‘amlar
kelar bostirib,
ko‘nglim kuyuklari
sezib hidini.*

Bu misralarda tabiatdagi kuchli hodisa – chumoli bosqiniga o‘xshatib g‘amlar tasvirlanmoqda. Chumoli tinimsiz harakatdagi hasharot. "Chumoliday" degan sifat orqali g‘amlarning son-sanoqsizligi, to‘satdan va kuchli bosib kelishi juda ta‘sirli va chiroyli ifodalangan. Bu orqali inson ruhiyatidagi ichki notinchlik, xavotir va og‘riq kuchli tasvir topgan. Satrdagi g‘amlarning hujumchiligi ta‘kidlanmoqda. Ular kutilmaganda keladi, odamni bosib, egallab oladi. Bu insonning himoyasiz, zaif holatini, g‘am oldida ojizligini aks ettiradi. Ichki azoblar, alamlar o‘tib ketgan emas, balki hali hanuz qoldirgan izlar bilan yashayotgan yurak. “Kuygan yurak” o‘zbek she‘riyatida juda kuchli metaforik obraz sifatida ishlatiladi. She‘rda tabiatdagi voqealar orqali inson qalbining nozik, chuqur iztiroblari poetik tarzda ifoda etilgan. Shoira tashqi manzara – ya‘ni chumoli kabi bosib keluvchi kuchlar va kuygan narsa hidini – ruhiy kechinmalar bilan uyg‘unlashtirgan. To‘satdan bostirib kirgan g‘amlar. Ular chumoli to‘dasidek – jimjit, lekin yo‘lidagi hamma narsani egallovchi, to‘xtov bilmaydigan. Shoir g‘amlarni oddiy iztirob sifatida emas, jonli, harakatda bo‘lgan bir kuch sifatida tasvirlaydi. Go‘yo bu g‘amlar begona emas – ular yurakka kirib, ongni qamrab oladi, hislar ustidan hukmronlik qiladi.

She‘r qisqa, ammo ichki olami chuqur. U bir necha misrada butun bir ruhiy kechinma, ichki iztirob va hayot falsafasini mujassamlashtiradi. Har bir obraz ko‘ngil tubidan otilgan, har bir satr yurak kuyining aksidir. Bu she‘r – inson qalbining tabiat bilan sokin, ammo alamli suhbatidir.

Xosiyat Rustamovaning ham quyidagi baytlarida inson ruhiyati va tabiat tasviri uyg‘unligini yaqqol kuzatishimiz mumkin.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



*Yo Tangrim,
Sen menga kuch ber,
Ber chidam –
Xuddi daraxtlarday ko'tarayin qad.
Ichimda qor yog'ib turganida ham
Men kulib turishim kerak hamma vaqt.*

Bu she'r – insonning ichidagi kurash, barcha og'riq va to'siqlarga qaramay bardavom bo'lish istagi haqida. She'rda kuchli obrazlardan biri – daraxt. Daraxt – tabiatdagi eng bardavom, eng tik turishni bilgan mavjudot. U bahorda gullab-yashnaydi, kuzda barg to'kadi, qishda yalang'och qoladi, ammo hech qachon yiqilmaydi. Shoira shu daraxtga o'xshashni istaydi. Bu – insonning o'zini hayot shamollariga qarshi tayyorlashi, o'zini ehtiyotsiz shamolga tashlamasdan, ruhan baquvvat bo'lishga intilishidir.

Zulfiya ijodining eng yorqin xususiyatlaridan biri – bu tabiat manzaralarini inson ruhiyatining ifodasi sifatida tasvirlashidir. Uning she'rlarida tabiat shunchaki fon, shunchaki estetik bezak emas – u inson qalbidagi tuyg'ularning ramziy ko'zgusi, hayotning falsafiy aksidir. Shoiraning bahor haqida yozgan misralari – quvonch va umid ramzi bo'lsa, kuzgi manzaralar – iztirob, sog'inch va o'tkinchilik timsoliga aylanadi. Qor, yomg'ir, daraxt, gul, qush – bu obrazlar Zulfiya uchun ruhiy holatlarni tashqi manzara orqali anglatish vositasidir. Masalan, sevgi haqida yozganda u gul ochilgan bog'larni tasvirlaydi, ayrilqni esa so'kilib ketgan yaproqlar, so'ngan quyosh bilan ifodalaydi. Shu tariqa, tabiat va ruhiyat o'rtasida kuchli badiiy uyg'unlik hosil bo'ladi. Zulfiya she'riyati – bu tabiat va inson qalbi orasidagi sokin, lekin chuqur suhbatdir. Shoira ruhiy kechinmalarni faqat so'z bilan emas, balki tabiat manzaralari orqali ham kuylaydi. Natijada uning she'rlari o'quvchini nafaqat o'qishga, balki his qilishga, ko'rishga, tasavvur qilishga majbur etadi. Zulfiya – tabiat timsollarida inson yuragini, inson yuragida esa tabiat ovozini eshitgan shoiradir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lotman, Yu. M. *San'atning semiotikasi*. Toshkent: “Fan”, 2004.
2. Jo'rayev, H. *O'zbek lirikasida tabiat va ruhiyat uyg'unligi*. Samarqand: “Ilm Ziyo”, 2017.
3. Karimov, M. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2005.
4. Shukur, H. *She'riyat va tafakkur*. Toshkent: “Sharq”, 2001.
5. Baxtin, M. M. *San'at va haqiqat*. Moskva: “Iskusstvo”, 1986.
6. Rustamova, X. *Chuqur jimlik*. Toshkent: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2015.
7. O'ktamoy. *Qora bulut soyasida*. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019.
8. Zulfiya. *Tanlangan asarlar*. 2 jildlik. 1-jild. Toshkent: “Yozuvchi”, 1985.